

Termiz shahrida "Ayollar daftari" ni shakllantirish yuzasidan ishchi guruh tashkil qilindi.



“Ayollar daftari”ga ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz xotin-qizlar, tadbirkorlik qilish istagida bo’lgan ehtiyojmand xotin-qizlar va nogironligi bo’lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar, qaramog’ida nogironligi bo’lgan farzandi mavjud ehtiyojmand xotin - qizlar kiritiladi.

Xatlov jarayonlarida "Mahalla yettiligi" tomonidan ishlarni taqsimlash, xonadonma-xonadon yurish orqali xotin-qizlar muammolarini o'rganish, shtab tashkil etish va boshqa amalga oshiriladigan ishlar bo'yicha chora-tadbirlar belgilab olindi.

Xususan Termiz shahridagi "Saxovat", "Temir

yo'lchi", "Navro'z", "Do'stlik", "Jayxun", "Shifokor" mahalla xotin-qizlar faollarining ish faoliyati ishchi guruh tomonidan o'rganildi.